



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA O'RTA MUDDATLI  
INFLYATSION TARGETLASH REJIMIGA O'TISHNING AHAMIYATI**

**Jiyanov Uktam Panjiyevich**

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi*

**To'lqunova Durdonaxon Ravshan qizi**

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining o'rta muddatli davrda inflyatsiyani pasaytirib, iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan inflyatsion targetlash rejimiga o'tishining mamlakatdagi holati, bu maqsad yo'lida amalga oshirilgan ishlar va kelgusidagi amaliy tajribalar to'g'risida tahlillar keltirilgan. Shuningdek, mamlakatimizning yaqin istiqbolida inflyatsiyaning yuqori ko'rsatkichlarini pasaytirish va uni rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetkazishga qaratilgan choralar samaradorligi bo'yicha ilmiy xulosalar chiqarilgan.

**Kalit so'zlar:** pul massasi, monetar siyosat, pul-kredit siyosati, inflyatsion kutilmalar, foiz stavkasi, narxlarning barqarorligi ta'minlash.

**В СРЕДНЕСРОЧНОМ ПЕРИОДЕ ЗНАЧЕНИЕ РЕАЛИЗАЦИИ ИНФЛЯЦИОННО-  
ТАРИГЕНТИРОВАННОГО ПЛАНА РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**Джиянов Уктам Панджиевич**

*Международная исламская академия Узбекистана*

**Толкунова Дурдонахана Равшан кизи**

*Международная исламская академия Узбекистана*

**Аннотация.** В данной статье анализируется состояние перехода Республики Узбекистан к режиму инфляционного таргетирования, направленного на снижение инфляции и развитие экономики в среднесрочной перспективе, работа, проводимая в этом направлении, и будущий практический опыт. Также сделаны научные выводы об эффективности мер, направленных на снижение высокого уровня инфляции и доведение ее до уровня развитых стран в ближайшем будущем нашей страны.

**Ключевые слова:** денежная масса, денежно-кредитная политика, инфляционные ожидания, процентная ставка, обеспечение ценовой стабильности.

**IN THE MEDIUM-TERM PERIOD, IMPORTANCE OF IMPLEMENTATION TO THE INFLATION  
TARGETING PLAN OF PROGRESS OF NATIONAL ECONOMY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**Dzhiyanov Uktam Panjiyevich**

*International Islamic Academy of Uzbekistan*

**Tolkunova Durdonakhan Ravshan kizi**


*International Islamic Academy of Uzbekistan*

**Abstract.** This article analyzes the state of the Republic of Uzbekistan's transition to the inflation targeting regime aimed at reducing inflation and developing the economy in the medium term, the work carried out towards this goal, and future practical experiences. Also, scientific conclusions were drawn on the effectiveness of measures aimed at reducing the high rate of inflation and bringing it to the level of developed countries in the near future of our country.

**Keywords:** money supply, monetary policy, inflation expectations, interest rate, price stability.

### Kirish.

Bugungi jahon iqtisodiyotining globallashuvi davrida pulning qadrsizlanishi, ya'ni inflyatsiya barcha mamlakatlar uchun makroiqtisodiy siyosatning asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Aytish mumkinki, rivojlanayotgan mamlakatlardagi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad pastligi fonida yuqori inflyatsiyaning kuzatilishi mamlakatda yaratilgan iqtisodiy tizimning mukammal ishlamayotganligidan ogohlantiruvchi belgilardan deyishimiz mumkin. Asosiy makroiqtisodiyotning maqsadi past inflyatsiyani saqlab qolish orqali barqaror iqtisodiy o'sishga erishishdir. Valyuta kursi, davlat xarajatlari, pul massasi, foiz stavkalari, resurslar narxleri inflyatsiya ko'rsatkichi darajasini belgilab beruvchi asosiy mezonlari hisoblanadi. Inflyatsiyani keltirib chiqaruvchi sabablar sifatida iqtisodiyot tarmoqlari, jamg'arma va iste'mol, talab va taklif, davlat daromadlari va xarajatlari, xo'jaliklardagi pul massalari hamda unga bo'lgan talab o'rtasidagi nomutanosiblik va Markaziy bankning kredit ekspansiyasini ko'rishimiz mumkin. Ushbu omillar inflyatsiyaga turli darajada ta'sir etadi. Shuningdek, bu omillarni ichki va tashqi omillarga ajratish mumkin. Masalan, ichki omillar asosan pul-monetar siyosati va xo'jalik faoliyati bilan bog'liq, tashqi omillar esa jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan inqirozlar (xomashyo, resurslar tanqisligi kabi) va davlatning valyuta siyosati kabilar bilan bog'liq. Inflyatsiyaga endogen va ekzogen ta'sir omillarning avj olishi mamlakatda siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy holatning yomonlashuviga olib keladi. Shuning uchun jahonda iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarida inflyatsiyaning oldini olish, pul muomalasini barqarorlashtirish uchun nazariy va amaliy tajribalar to'plangan. Ammo inflyatsiya ko'tarilishiga sabab bo'ladigan omillarni to'liq bartaraf etishning iloji yo'q. Shuning uchun asosiy maqsad uni butunlay yo'qotish emas, balki salbiy iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlarini kamaytirishdan iborat. Asosan davlatda inflyatsiyaga qarshi kurashishda byudjet, soliq, narx, moliya-kredit, sanoat-investitsiya, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq antiinflyatsion siyosat amalga oshiriladi (1-rasm).



**1-rasm. Antiinflyatsion siyosat turlari**

Antiinflyatsion siyosat rivojlanayotgan davlatlarda turli usullar bilan olib boriladi. Bunda iqtisodchilar tomonidan inflyatsiya ko'rsatkichlarining yillik va choraklik ma'lumotlaridan foydalanib, uni kelgusi davrlarda qanday barqarorlashtirish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida yillik prognozlashtirish tahlillari amalga oshirildi. Ko'pgina rivojlanayotgan davlatlar bu yo'lda asosan pul-kredit, valyuta kursi va fiskal siyosatlaridan foydalanishadi. Shular jumlasidan, O'zbekistonda ham 1994-yildan boshlab inflyatsiyani jilovlashga qaratilgan pul-kredit siyosati va pul massasining keskin o'sib ketishini oldini olish orqali milliy valyuta barqarorligini ta'minlash chora-tadbirlari amalga oshirilib kelinmoqda.

Inflyatsiyani jilovlash va faol pul-kredit siyosatini olib borishning navbatdagi chorlari sifatida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrda "Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan Markaziy bankning o'rta muddatli istiqbolda inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish taklif qilindi.

Mamlakatimizda inflyatsiyaning doimiy amal qiladigan maqsadini belgilash va uni jamoatchilikka yetkazish, pul bozoridagi foiz stavkalarini tartibga solish va inflyatsion jarayonlarni boshqarish maqsadida pul-kredit siyosatining keng qamrovli instrumentlarini qo'llash, amalda qo'llanilayotgan mexanizmlarning samaradorligini baholash, makroiqtisodiy tahlil va prognozlarni amalga oshirish, pul-kredit siyosati maqsadlarini keng jamoatchilikka yetkazish muammolari tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Inflyatsion targetlashning nazariy asoslari va unga o'tish sharoitida monetar siyosatni amalga oshirishning amaliy jihatlari K.Viksell, B.Bernanke, F.Mishkin, J.Taylor, D.Velles, R.Mandell kabi yetakchi xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy-tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan.

Jumladan, Inflyatsiyaning targetlash g'oyasini birinchi marta ilgari surgan olim shvetsiyalik Knut Viksell hisoblanadi. U 1896-yilda Shvetsiya iqtisodchilar assotsiatsiyasida o'tkazilgan yig'ilishda "Markaziy bank siyosatining asosiy maqsadi narxlar darajasini barqarorlashtirish bo'lishi kerak" degan g'oyani ilgari suradi (Orphanides, 2009).

Zamonamizning taniqli iqtisodchi olimlaridan, Nobel mukofoti sovrindori Bernanke (1997) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda qator sanoati rivojlangan mamlakatlarning inflyatsion targetlash rejimiga o'tishi, jarayon bosqichlari va shart-sharoitlari haqida so'z yuritilgan.

Amerikalik iqtisodchi olim, Prinston, Chikago hamda Kolumbiya universitetlari professori Fredrik Mishkin(2001)ning "Inflation targeting" nomli maqolasida inflyatsion targetlash strategiyasi monetar siyosatining narxlar darajasini barqarorlashtirishga qaratilgan samarali strategiya ekanligini ta'kidlaydi va uni qo'llashning beshta asosiy shartlari mavjudligini aytilgan. Maqolada, mazkur rejimni qo'llagan mamlakatlar narxlar barqarorligini ta'minlash orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muayyan yutuqlarga erishganligi aytiladi.

Iqtisodchi olim Velles (2010) AQSHda o'z izlanishlarini inflyatsion targetlash rejimiga o'tish bosqichlari, inflyatsion targetlash sharoitida monetar siyosatning taktik va strategik maqsadlarining belgilanishi va ularga erishish jarayonlarini tadqiq etishga qaratgan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida monetar siyosatni amalga oshirishning ayrim nazariy-uslubiy va amaliy jihatlari o'rganilgan, ammo bu izlanishlar inflyatsion targetlash rejimining joriy etilishi yuzasidan ilmiy maqolalar doirasidagina ko'rib chiqilgan va tadqiq etilgan. Jumladan, Yakubova (2019) o'zining ilmiy ishlarida inflyatsion targetlashni pul-kredit siyosatini takomillashtirishning zamonaviy yo'nalishi sifatida tadqiq etgan. Shuningdek, inflyatsion targetlashning elementlarini o'rganib, har bir elementning inflyatsion targetlashga o'tish bosqichidagi ahamiyatini yoritib bergan. Bundan tashqari, sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda inflyatsion targetlashga o'tish jarayonlarini tadqiq etgan.

Bahriddov (2019) esa inflyatsion targetlash siyosatining xususiyatlari, inflyatsion targetlashning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi va O'zbekistonda bu amaliyotni qo'llash imkoniyatlari tahlil qilingan.

Umuman olganda, O'zbekiston iqtisodiyotini monetar siyosat instrumentlari orqali tartibga solishning ayrim jihatlari atroflicha yoritilgan bo'lsada, ammo inflyatsion targetlashga o'tish sharoitida monetar siyosatni amalga oshirishning strategik maqsadlaridan kelib chiqib, zamonaviy monetar siyosat yo'nalishlarini yaxlit va kompleks tarzda tadqiq etish o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqotni olib borishda ekspert baholash usuli, tahlil va taqqoslash metodlaridan foydalanilgan. Shuningdek, inflyatsion targetlash va monetar siyosat yuritish masalalari ilmiy mushohada, induksiya va deduktsiya metodlariga asosan ko'rib chiqilgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Ma'lumki, mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar va iqtisodiyotni kompleks rivojlantirish dasturlari negizida moliya sektorini erkinlashtirish, milliy valyuta barqarorligini ta'minlash masalalari ham yotadi. Xususan, 2017-yilda boshlangan iqtisodiyotni liberallashtirish va bozor mexanizmlari rolini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichi o'rta muddatli

istiqbolda bank tizimi va pul-kredit siyosatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Valyuta bozorini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi va undan ko'p o'tmay "Pul-kredit siyosatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi va pul-kredit siyosatini 2017-2021-yillarda rivojlantirish va inflyatsion targetlash rejimiga bosqichga-bosqich o'tish bo'yicha chora-tadbirlar Kompleksi tasdiqlandi<sup>17</sup>.

Xalqaro Valyuta Fondining statistik ma'lumotlariga ko'ra 41 ta rivojlanayotgan mamlakatlarda inflyatsiyani oldini olish va uni pasaytirish uchun inflyatsion targetlash siyosati qo'llanilmoqda. Shuningdek, yurtimizda ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 18-noyabrda PF-5877-sonli "Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoniga muvofiq 2025-yilga qadar inflyatsiya ko'rsatkichini 5% gacha tushirish maqsad qilib qo'yildi. Mazkur farmon bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Markaziy bankining inflyatsiyani pasaytirish va narxlar barqarorligini ta'minlash bo'yicha birgalikdagi harakatlari konsepsiyasi tasdiqlandi va ushbu Konsepsiyaga muvofiq, 2020-yilda bu konsepsiyani amalga oshirish "Yo'l xaritasi" ma'qullandi. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun esa iqtisodiyotni tartibga solishning bozor mexanizmlari va instrumentlarini qo'llashni kengaytirish, narxlarni barqarorlashtirish, shuningdek, pul-kredit siyosati samaradorligini oshirish talabi qo'yildi<sup>18</sup>. Narxlar barqarorligini ta'minlash deganda, inflyatsion ko'rsatkichni nolga tushirish emas, balki uni past darajada o'sishi nazarda tutiladi. Chunki narxlarning barqaror holatda asta-sekin o'zgarib turishi ham iqtisodiyotning samarali faoliyatini ta'minlaydi. Konsepsiyaga binoan, pul-kredit siyosatini amalga oshirishning monetar targetlash rejimi narxlarni barqarorlashtirish uchun pul agregatlari, rezerv pullar va pul massasi hajmlari o'zgarishini nazorat qilish nazarda tutiladi. Bundan tashqari konsepsiyaga valyuta kursini targetlash rejimi ham kiritilgan. Chunki bu rejim asosan iqtisodiyotida eksport hajmidan ko'ra iste'mol savatida import tovarlari kattaroq ulushlarni tashkil qiladigan mamlakatlarda qo'llaniladi. Bu rejim inqiroz davrida inflyatsiyani pasaytirish uchun tez samara beradi. Valyuta kursini targetlash rejimiga oddiy va aniqligi tufayli bozorning xo'jalik yurituvchi subyektlari va oddiy aholi oson tushunadi. Valyuta kursi qadrsizlanishini oldini olish uchun mamlakat oltin zaxiralarining yetarlicha bo'lishini ta'minlash, xufyona valyuta bozorini kamaytirish talab etiladi. Bularning barchasi inflyatsiya ko'rsatkichini imkon qadar bosqichma-bosqich pasaytirishga qaratilgan hisoblanadi.

Inflyatsion targetlash rejimida inflyatsiya bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlarga erishishda aholi va biznes vakillarining inflyatsion kutilmalari muhim ahamiyat kasb etishi tufayli olib borilayotgan pul-kredit siyosatiga jamiyatning ishonchini mustahkamlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Inflyatsiyani targetlash rejimiga o'tish iqtisodiy siyosatni keng ko'lamda takomillashtirishni talab etadi. Lotin Amerikasining inflyatsion targetlash rejimi qo'llanilganligi soliq-byudjet siyosatining ham qayta ko'rib chiqilishiga sabab bo'lgan. Shuningdek, O'zbekistonda ham pul-monetar va barqaror iqtisodiy rivojlanish makroiqtisodiy siyosatlarning qayta ko'rilishiga sabab bo'ldi deya olamiz. O'rta va uzoq muddatli istiqbolda narxlar barqarorligini ta'minlashda inflyatsion targetlashning samarali usullaridan biri sifatida ichki valyuta bozorini liberallashtirilishi pul-kredit siyosati tamoyillari qo'llanilishi nazarda tutilgan. Bu rejimning asosiy yo'nalishlari makroiqtisodiy prognozlash salohiyatini mustahkamlash, banklararo pul bozori faoliyati shaffofligini oshirish, Markaziy bankning institutsional bazasini rivojlantirish, umuman olganda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tarkibiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, inflyatsion xatarlarni pasaytirish uchun majburiy zaxira talablarini o'rtachalash tartibini joriy etish masalasi ham ko'rilgan. Bunga ko'ra majburiy zaxiralar shakllantiriladigan majburiyatlar ro'yxatiga jismoniy shaxslar depozitlari va boshqa moliyaviy resurs manbalari kiritilishi zaxiralash tartibidagi nomutanosibliklarni kamaytirilishiga imkon yaratadi. Bu bilan banklarning moliyaviy holatini yaxshilash va resurslar qiymatini maqbullashtirishga erishiladi.

Markaziy bank tomonidan likvidlikni tartibga solishning bozor instrumentlaridan biri ochiq bozor operatsiyalari hisoblanadi. Bunga ko'ra Markaziy bank bozor operatsiyalari turlari va hajmlarini o'zi belgilaydi, masalan:

- o'zgarma va o'zgaruvchan stavkada cheklangan hajmdagi kimoshdi savdolari;
- garov ta'minoti asosida milliy valyutada kreditlar berish;
- davlat qarz majburiyatlari chiqarilishi bilan ular bo'yicha RYePO operatsiyalari;

<sup>17</sup> <https://cbu.uz/uz/monetary-policy/concept/>

<sup>18</sup> <https://review.uz/uz/post/inflyatsion-targetlash-va-uning-ziga-xos-xususiyatlari>

- milliy valyutadagi muddatli depozitlar va boshqalar

Inflyatsion targetlash rejimiga o'tish tajribasini yakunlash uchun uzoq muddatli oraliq davrda pul-kredit siyosatini amalga oshirish orqali narxlarni barqarorlashtirish va zaruriy makroiqtisodiy sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari ishlab chiqildi.

Shunga qaramay, inflyatsion targetlash rejimini joriy qilish bo'yicha bir qancha xatar va cheklovlarga duch kelishimiz mumkin. Asosiy cheklovlardan biri xo'jalik yurituvchi subyektlarning inflyatsion kutilmalarining yuqori darajada saqlanib qolayotgani hisoblanadi. Bunga inflyatsion bosimning oshishi sabab bo'lmoqda. Inflyatsion kutilmalar darajasini pasaytirish va barqaror ushlab turish vazifasini amalga oshirishda nomonetar omillar yuqori bo'lganligi sababli inflyatsion targetlashda to'siqlar vujudga kelishi mumkin. Mahalliy bozorlar monopollashuvi, energiya sarfi yuqoriligi, ishlab chiqarish samaradorligi pastligi va yaxshi rivojlanmagan infratuzilmalarni bunday omillar qatoriga kiritish mumkin.

Hozirgi kunda mamlakatimizda inflyatsion targetlash uchun yangi instrumentlardan foydalanish avvalo qisqa va o'rta muddatli depozitlar jalb qilish, kredit auksionlari tashkil qilish va foiz stavkasini pasaytirish amaliyoti qo'llanildi. Ayni vaqtda foiz stavkasi ko'rsatkichi 7-8% ni, 2022-yil oxirida inflyatsiya darajasi 12,3% ni tashkil etdi. Markaziy bankning kommunikatsiya siyosati orqali keyingi inflyatsion kutilmalarni prognozlash ishlari olib borilmoqda. Jamg'armalarning ma'lum bir qismi investitsiyalarga jalb qilindi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, qo'llanilayotgan pul-kredit siyosati instrumentlari samaradorligi hamda milliy valyutadagi aylanmalarning ko'payib borishi xorijiy valyutaga bo'lgan talab o'zgarishlarining inflyatsiyaga ta'siri pasayib borishiga xizmat qilmoqda. Hozirgi kunda bu ta'sir 0,3-0,4% tashkil etgan bo'lsa, oldingi davrlarda qariyb 0,8-0,9% ga teng bo'lgan. Bu esa narxlarga nisbatan ta'sirning ikki marta qisqarganini anglatadi.

2021-yilda qabul qilingan inflyatsion targetlash rejimi bo'yicha inflyatsiya darajasini 10% gacha pasaytirishga erishildi. Ammo 2022-yilda global vaziyatning beqarorligi, jahon yoqilg'i va energetika narxlarining ko'tarilishi, yaqin hamkor davlatlardagi siyosiy keskinliklar, sanksiya va embargolarning kuchayib borishi inflyatsion targetlash bo'yicha maqsadli prognoz parametrlarni o'zgartirilishiga sabab bo'ldi. Xususan, 2023-yildagi 5% ga tushirish bo'yicha target ko'rsatkichini 2025-yilga qadar erishilishi maqsad qilib qo'yildi. Ma'lumot uchun, 5% li inflyatsion ko'rsatkich bu Kanada va Buyuk Britaniya kabi davlatlar darajasiga tengdir. Bunga erishish uchun, bozorda to'g'ri raqobat sharoitini ta'minlash, import tovarlar, oziq-ovqat mahsulotlari tarif cheklovlari kamaytirish, ularni bojxonadan olib o'tish sharoitlari yengillashtirish, iste'mol savatchasidagi umumiy hisobda 510 turdagi mahsulot va xizmatlarni yanada ko'paytirish kabi chora-tadbirlar amalda qo'llanila boshladi. Bundan tashqari, hududlardagi mahalliy hokimliklarga birlashtirilgan bozorlarni tovarlar bilan to'ldirib berish bo'yicha tadbirkorlarga imkoniyat yaratib berildi. Makroiqtisodiyotdagi talab va taklif omillari barqarorligini ta'minlash uchun taklif omilini ko'paytirishga, ya'ni ishlab chiqarish salmog'ini oshirish uchun tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratilmoqda. Bu siyosatlarining barchasi narxlarning pasayishiga va inflyatsiya ko'rsatkichini kamaytirishga sabab bo'ladi.

### **Xulosa va takliflar.**

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda olib borilayotgan inflyatsiyani targetlash rejimiga doir siyosat iqtisodiyotimizni yanada rivojlanishi, rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilishimiz va turmush tarzimiz farovonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu rejim bo'yicha hali to'liq maqsadga erishilmagan bo'lsa-da, asta-sekinlik bilan iqtisodiy infratuzilmani takomillashuvi, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar barqarorlashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. 2025-yilga qadar inflyatsion kutilmalar va foiz stavkalari yanada kamayib (5% gacha) aholi turmush tarzi yaxshilanib borishi uchun kerakli chora-tadbirlar amaliyotda qo'llanilib bormoqda.

Mutasaddilarning o'tgan yilda yillik inflyatsiyani 8-9% gacha pasayishini prognoz qilganligiga qaramay, yuzaga kelgan geosiyosiy vaziyat va uning tovar hamda mahsulotlar ta'minoti zanjirlariga ta'siri va buning oqibatida jahon bozoridagi asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari, xomashyolar va energiya resurslari narxining yuqori sur'atlarda o'sishi inflyatsiya darajasini yuqori ko'rsatkichlarda qolishiga sabab bo'ldi. Shunga qaramay, kutgan natijaga erishish uchun milliy valyuta barqarorligini ham ta'minlash kerak. Buning uchun esa xorijiy va ichki xarid qobiliyatini oshirish, narxlar darajasini pasaytirish, YaIM tarkibidagi soliq yuklarini 28% ga yetkazish kabi amaliyotlarni ko'rishimiz mumkin. Hozirda rivojlanayotgan davlatlarda inflyatsiya ko'rsatkichi o'rtacha 4-5% ni tashkil qilmoqda. Bu barqarorlikka erishishda ular joriy qilgan antiinflyatsion siyosatidagi usullarini, ularni makroiqtisodiy tahlillarini, yillik o'sish ko'rsatkichlarini chuqur o'rganish kerakligini taqozo etadi. Misol uchun,

rivojlanayotgan mamlakatlar qatori Germaniyani oladigan bo'lsak, 2023-2024-yil uchun "Inflyatsiya kompensatsiyasi" nomli qonunini imzoladi.

Bunda inflyatsiyani pasaytirishga qaratilgan asosiy omil sifatida fiskal siyosat ya'ni iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilarning soliq yuklarini muvozanatlashtirib, muhtoj oilalarni qo'llab-quvvatlash, deb belgilandi. Bunga ko'ra, soliq to'lamaslik kerak bo'lgan daromad kelgusi yilda 561 yevrodan 10908 yevrogacha ko'tarilishi kutilmoqda. Bundan tashqari, 42% lik eng yuqori foiz stavkasi soliqqa tortiladigan daromad 62827 yevroga yetmaguncha qo'llanilmaydi. Bu albatta inflyatsiya ko'rsatkichining barqarorlashuviga olib keladigan omillardan biri hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, soliqlarni deyarli 2 barobar kamaytirilgan holda ham inflyatsiya barqarorligiga erishish mumkin. Hozirda bu amaliyotni qo'llash orqali inflyatsiya ko'rsatkichining hozirgi darajasi 10% dan kelgusi 2023-2024-yilga qadar 5-7% gacha pasaytirish maqsad qilingan. Shu kabi boshqa davlatlar anntiinflatsion targetlash siyosatlari ustida kuzatuv-tahlillar o'tkazish orqali ham inflyatsiyani pasaytirib, makroiqtisodiy barqarorlikka erishishning maqbul yo'llarini topishimiz va amaliyotda qo'llab ko'rishimiz mumkin. Bu, albatta, yurtimiz iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlashga zamin yaratadi.

#### **Adabiyotlar/Литература/Reference:**

Bernanke, Ben S., and Frederic S. Mishkin. (1997) "Inflation Targeting: A New Framework for Monetary Policy?" Journal of Economic Perspectives, 11 (2).

Frederic S. Mishkin. (2001) "Inflation targeting" // Graduate School of Business, Columbia University and National Bureau of Economic Research. URL: <https://notendur.hi.is/ajonsson/kennsla2013/01ENCYC.pdf>

Orphanides A. (2009) "Reflections on inflation targeting" // Speech at the 6th Norges Bank Monetary Policy Conference on Inflation targeting twenty years. URL: [www.norges-bank.no/en/about/Research/Conferences/2009-The-6th-Norges-Bank-MonetaryPolicy-Conference/](http://www.norges-bank.no/en/about/Research/Conferences/2009-The-6th-Norges-Bank-MonetaryPolicy-Conference/)

Бахриддинов В.А. (2019) Инфляцион таргетлаш сиёсатининг хусусиятлари ҳамда уни ўзбекистонда жорий этиш истиқболлари. // Ўзбекистон республикаси ҳаракатлар стратегияси: макроиктисодий барқарорлик, инвестицион фаоллик ва инновацион ривожланиш истиқболлари [Электрон тўплам]. –Т.: «Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар» илмий электрон журналининг махсус сони.

Якубова Ш.Ш. (2019) Таргетирование инфляции – современное направление совершенствования денежно-кредитной политики. "Инновацион иқтисодиёт шароитида банк-молия тизимини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари" мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. 28 сентябрь.